

O`QISH DARSLARI - O`QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHGA O`RGATISH ASOSI

Amonova Amina Shavkatovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211955>

Annotatsiya: maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarida kreativ fikrlashni o`rgatishda Finlyandiya ta`lim dasturining ahamiyati, o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o`qish va savodxonlik malakalarini oshirishda ko`p qirrali ijodiy topshiriqlar tahliliga o`rgatishning ayrim tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: kreativ fikrlash, modifikatsiya, PIRLS, EGRA, EGMA, savodxon, ijodiy tafakkur, texnologiya, badiiy matn, robototexnika, axborot

Ta`lim tizimidagi islohotlar hamisha yosh avlodni raqobatbardosh, yuksak intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashga yo`naltirilgan. Mustaqillik yillaridagi ilm-fan taraqqiyoti boshlang`ich sinflarning ta`lim mazmuniga ham o`zgarishlarni olib kirmoqda. Negaki, ilm-fan yangiliklari, zamonaviy texnologiyalar yosh avlod ma`naviy qiyofasini ham tobora o`zgartirib bormoqda.

Natijada, turli o`quv predmetlarini o`qitishda soatlarning qisqarishi, o`quv materiallari mazmunining ilmiy jihatdan murakkablashishi o`quvchilarga qo`yilayotgan talablarning kuchayishi, ta`lim sohasidagi yangilanishlarga ehtiyoj tug`dirmoqda. Maktab ta`limida bugungi kunda erkin fikrlovchi, ijodkor, serqirra hamda fan va texnikaning eng so`nggi yutuqlaridan keng foydalana oladigan barkamol avlodni tarbiyalash va bunda eng avvalo boshlang`ich ta`lim tizimidagi samaradorlikni oshirish taqozo etilmoqda.

Boshlang`ich sinflarning Ona tili va o`qish savodxonligi darsliklari shu ma`noda chet el ta`lim tizimiga tayanilib tuzilgan dastur hisoblanadi. Unda o`quvchilarning nafaqat savod chiqarishi, balki ona tili, o`qish, badiiy matn tahlili, tabiatshunoslik, geografiya, rabototexnika, fan va texnologiya kabi bilimlarga ijodiy tafakkurlash asosida tasavvurga ega bo`lishi ko`zda tutilgan.


Endilikda boshlang`ich sinf faqat o`qish, yozish va sanashni o`rgatishi haqidagi tasavvur o`zgardi. Har bir bolaning shakllanishi davrida uning intellektual faolligini rag`batlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o`tsirish uning keyingi muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishda chet el ta`limi mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ona tili va o`qish savodxonligi darsliklari yangi mazmun va mohiyat,

qiyofa kasb etishini taqozo etdi. Aniqrog'i uning modifikatsion imkoniyatlari kengaydi. Binobarin, modifikatsiya – predmet yoki hodisaning asli, mohiyati saqlangan holda yangi xossalar paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladigan shakliy o'zgarishi, shunday o'zgarishga uchragan predmet yoki hodisa, ko'rinish demakdir.

Ijodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko'nikma va qobiliyatlar ham zarur bo'ladi. Masalan, san'at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog'liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e'tirof ham talab etiladi. Va aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masa lan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir.

Shundan kelib chib fikr yuritsak, boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi darsligini mavzu-mundariyasi, shakily va mazmuniy o'zgarishlarini tahlil va tadqiq etish zarur. Ma'lumki, respublikamizdagi ta'lim tizimi islohotlarida xorijiy mamlakatlar, jumladan Finlyandiya ta'limiga xos bo'lgan omillar, fin ta'limining muvaffaqiyat tamoyillari muhimlik kasb etadi. Ayniqsa, bolalarni kreativ fikrlashga o'rgatishda o'qish darslari muhim rol o'ynashi nazarda tutilsa, bunga erishish usullari haqida mulohaza yuritish o'rinli. Zotan, Finlyandiya ta'limida nimaga urg'u berilsa, PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash; EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quvdasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi dasturidagi baholashlar ham aynan shular bilan chambarchas bog'liqligi ahamiyatlidir. PIRLS – (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarni boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.



PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

O'qish savodxonligining maqsadi: – badiiy tajriba orttirish;
– axborotni olish va undan foydalanish.

Tushunish jarayoni: – diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; – to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish;- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish; – kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish .

Ya'ni o'quvchilarga faqat bilim berish o'rniga, savodxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish Finlyandiya ta'limining markazida turadi, bu fin o'quvchilariga PISA kabi savodxonlikka yo'naltirilgan baholash tizimida ustunlik beradi. O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga faol qo'shib borishi milliy ta'lim tizimini jahon andozalariga muvofiqlashtirishni talab qilayotgan ekan, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda, deyish mumkin. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga, mutaxassislar tayyorlashda ko'p bosqichli tamoyilga amal qilishga, O'zbekiston o'quv-ta'lim amaliyotiga kadrlar tayyorlashning jahon tajribasi yutuqlarini tatbiq etishga katta ahamiyat berib kelmoqda.

Negaki, bolalar olami ancha murakkab. Jamiyat, ijtimoiy muhit insonni o'zgartirib, tafakkurini yangilab boraversa-da, tabiat qonuniyatlari singari bolalik olamiga xos o'zgarishlar ham yangilanib boraveradi.

Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ong va tafakkuri avvalo boshlang'ich sinflarda olgan bilimi, o'qigan kitoblari, estetik zavqi, hayotga munosabati bilan to'lishib boradi. Bunda ayniqsa, o'qish kitoblari muhim omil sanaladi. Undagi ta'limiy, tarbiyaviy va badiiy ijod namunalari mantiqan bir-birini taqozo etsa, o'quvchilarda to'laqonli tafakkur shakllana borishiga poydevor yaratiladi. O'qish darslarining yangi namunalari bu jihatlarga alohida e'tibor qaratgani bilan muhim, albatta.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlariga e'tibor qaratish ham aslida xorijiy ta'lim tizimi an'alariga xos, deyish mumkin. O'quvchilar nima bilan shug'ullanishni xush ko'rishi, ularda qanday qobiliyatlar mavjudligi, ularda qaysi ko'nikmalar ustunligini aniqlab olish endilikda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy maqsadiga aylangan.




Jumladan, o`qish darslarida boshlang`ich sinf o`quvchilarining qiziqishlari, intilishlari hamda ularning hayotidagi muhim voqea, hodisa va munosabatlar tizimini chuqur o`rganishga imkoniyat yaratiladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish va qiziqarli voqea- hodisalar talqiniga o`rgatishda ham an`anaviylik hamda innovatsion usullar mavjuddir.

Shunisi diqqatga sazovorki, jahon ta`lim tizimida Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlar asosida takomillashtirish istiqbolli omil hisoblanib, yosh avlodning barkamol shaxs bo`lib shakllanishda bu qadriyatlardan foydalanish ustuvorlik qilmoqda. YUNESKO Bosh Assambleyasida o`rta asrlar Sharq allomalarning dunyo tamaddunida tutgan o`rni, bu mutafakkirlarining boy ilmiy merosi, ularning asarlarini muntazam o`rganish, erishilgan natijalar monitoringini olib borish, shu orqali fan va ta`lim tizimini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Jahonning nufuzli oliy ta`lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilayotgan izlanishlarda ham Sharq mutafakkirlari asarlarida xalqlarning kelib chiqishi va etnopedagogik xususiyatlari, IX-XII asrlar Sharq mutafakkirlari asarlaridagi shaxsning ma`naviy-ma`rifiy fazilatlari haqidagi qarashlari, allomalarning ilmiy merosi mazmuni, jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo`shgan hissasini o`rganish asosida ta`lim tizimini takomillashtirish vazifalari qo`yilmoqda. Chindan ham Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy, fazoviy, matematik qarashlari, shaxs kamoloti va odob-axloq masalalari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Zotan, Sharq mutafakkirlari qoldirgan qadriyatlar, ularning qarashlari vositasida o`quvchi-yoshlar ma`naviyatini shakllantirishda bir qator pedagogik yondashuvlar, masalan, tarbiya jarayonida o`quvchi-yoshlar ma`naviyatini Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan qadriyatlar asosida shakllantirishga qaratish; tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy hayot va kasbiy mehnat sirlarini egallash bilan uyg`unlashtirish; yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida shakllantirishga yo`naltirish, o`quvchilarda o`zini-o`zi tarbiyalash, sezgirlik, ogohlik ko`nikmalarini tarkib toptirish kabilarga e`tibor qaratilmoqda.

Shu ma`noda ham aytish mumkinki, xalqimizning ming yillik tarixi, madaniyati, adabiyoti, san`ati mavjud ekan, ta`lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma`naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Xorijiy ta`lim tizimi tamoyillari, boshlang`ich sinf o`quvchilariga munosabatdagi ijodiy yondashuv ular o`rtasidagi o`xshash va farqli tomonlar qiyosida ham yorqinroq ko`rinadi.



O`qish darslarni tashkil etishning didaktik asoslari o`quvchilarni qiziqargli bilimga ega bo`lishlarini ta`minlaydi. Boshlang`ich sinf o`qituvchilari ularni o`tishda pedagogik mahoratlari – notiqlik, san`atkorlik, rejissor va savodxonlik qobiliyatlarini to`liq namoyon eta olsalar har bir darsdan ko`zlangan samarali natijaga erishiladi. Bunda interaktiv metodlar ham albatta har bir o`quvchi shaxsi, kichik guruhlar, sinf qiziqishining yo`nalishiga, salohiyatiga ko`ra tashkil etiladi.

Binobarin, boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi kitobidagi mavzular, she'r va hikoyalar, ular ustida samarali ishlash va ilg`or pedagogik texnologiyalarni faol qo`llash muammosini kiritish mumkin. Uzluksiz ta`limning boshqa bosqichlaridan farqli o`laroq, boshlang`ich sinflarning ona tili va o`qish savodxonligi darslarida o`quvchilarning o`qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta`limning didaktik maqsadi hisoblanadi. Shunga ko`ra, bunday darslarining yetakchi xususiyati o`quvchilar savodxonligini ta`minlash bilan birga, badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Bunda ona tili fani topshiriqlari bajarish bilan birga hikoya, ertak, maqol, topishmoq, doston, tez aytish, she'r, latifa, lof kabi janrlar namunasini o`qishga erishish; o`zbek va xorijiy bolalar yozuvchilar asarlarini o`qish; yozuvchilarning ismi sharifi, asarlarining nomlari haqida to`laroq tushuncha hosil qilish; badiiy asarlarni sharhi, ifodali o`qish; asar mazmuni va voqealari o`rtasidagi bog`lanishni, qahramonlarning fe'l-atvorini aniqlash, qiyosiy tavsiflash; badiiy asarlarni estetik tahlil qilish; nasriy asar mazmunini to`liq, qisqartirib, shaxsini o`zgartirib hikoyalash; badiiy asarlarni o`zaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish kabilar alohida ta'kidlab ko`rsatilgan.

Boshlang`ich maktab ta`lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang`ich ta`limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar paydo bo`ldi: darsni ikki fan o`qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uning bir o`qituvchi tomonidan o`tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang`ich ta`lim mazmunini tubdan o`zgartirishgacha.

Boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan o`qish, ona tili, tabiatshunoslik, tasviriy san`at, mehnat, musiqa, matematika kabi o`quv fanlari o`quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bir-birini to`ldiruvchi ushbu o`quv fanlari yordamida o`quvchilar tabiat, jamiyatdagi hodisa va jarayonlar, san`at haqidagi umumiy tushunchalar, til xususiyatlari, og`zaki va yozma nutq shakllanishini tarixiylik tamoyili yordamida haqqoniy

dalillar, voqeliklar asosida o'rganadilar. Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini o'rganish jarayonida fanlararo aloqadorlik asosida matematika bilan bog'liq tarzda o'tmishdagi buyuk shaxslarning tug'ilgan va yashab o'tgan vaqti, asarlari yozilgan sanalar, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ilmiy merosi va axloqiy qarashlari bilan o'quvchilar tanishtiriladi. Bunda o'quvchilar xotirasi, his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatishi, o'z-o'zini tarbiyalashida matematik tushunchalarning o'рни beqiyosdir. Tarixiylik tamoyili o'quvchilarni o'rganilayotgan o'quv faniga nisbatan qiziqishini oshiradi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptiradi.

Misol uchun "Men, sen, u va ular" bo'limiga e'tibor qaratilsa, birinchi sinfda bu bo'lim orqali o'quvchilarga oila a'zolari, yaqinlari, kun tartibi va bayram kunlari haqida ma'lumot va topshiriqlar berilgan bo'lib, ikkinchi sinfdagi bu bo'limda yuqorida berilgan mavzular atroflicha kengaytirilib, o'quvchilar bilimiga maktab, mahalla kabi tushunchalar asosida ot yasovchi "- dosh" qo'shimchasi kiritiladi. O'quvchilar nutqida qo'llanib kelayotgan sinfdosh, partadosh, mahalladosh kabi so'zlar sinf, parta, mahalla so'zlariga "-dosh" qo'shimchasi qo'shilishi natijasida hosil bo'lganini bilib olishadi.

"Tabiat ne'matlari" bo'limi ham ikkala sinf doirasida uchrab, birinchi sinfda tabiat hodisalari, mo'jizaviy hasharot, ya'ni asarlari, uy hayvonlari haqida ma'lumot berish bilan birgalikda hayvonlarga qo'yilgan nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi hosil qilinadi.

Ikkinchi sinfda bu bilimlar kengaytirilib, qishda uxlaydigan hayvonlar, yer osti qazilmalari, sayohat qiladigan qushlar haqida ma'lumot berilib, "Yer ostida nima bor?" mavzusida o'quvchilarga narsalarning nomini bildiruvchi so'zlar nima? yoki nimalar? so'rog'iga javob berishi o'rgatiladi.

Bu kabi integratsiyalashgan bo'limlar darslikda ko'plab uchrab, biri ikkinchisining mazmunini to'ldirishga, boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
2. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil.–Toshkent: G.G'ulom, 2001. – 288 b.
3. Rajabova K. O'zbekiston ta'limining Finlyandiya ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llash imkoniyatlari. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ", 2023. – №2, –B.244
4. Bashorat Jamilova . Description of the spirit of teenagers in uzbek children's prose . MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970





5. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma.-T.:2019.-6-be
6. <https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5613>
7. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/134/13>
6https
8. <https://uz.wiktionary.org/wiki/modifikatsiya>
9. https://baxtiyor.uz/wp-content/uploads/2022/10/Kreativ_2020_PRINT.pdf

